



SOLIQ IMTIYOZLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI

Abdurahmonov Baxriddin

Termiz davlat universiteti

ORCID: 0009-0003-4943-9954

bahriddin@tersu.uz

Annotatsiya. Maqolda soliq imtiyozlarining samaradorligini baholovchi mezon va ko'rsatkichlarni ishlab chiqishning ayrim jihatlari yoritilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati ijobiy moliyaviy natijaga erishishga qaratilgan bo'lishi lozim, bu natijaga esa soliq imtiyozlari va preferensiyalar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Soliqqa tortish tizimi soliq to'lovchi uchun qabul qilinishi mumkin bo'lishi kerak, chunki bu holat tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Soliq imtiyozlarini tizimlashtirish va ularning samaradorligini baholash davlatga me'yoriy-huquqiy hujjatlarni asosli ravishda ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: soliq imtiyozlari, samaradorlik, baholash, mezon, ko'rsatkich.

ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ

Абдурахмонов Бахриддин

Термезский государственный университет

Аннотация. В статье освещены некоторые аспекты разработки критериев и показателей оценки эффективности налоговых льгот. В условиях рыночной экономики деятельность любого хозяйствующего субъекта должна быть направлена на достижение положительного финансового результата, на который существенное влияние оказывают налоговые льготы и преференции. Система налогообложения должна быть приемлемой для налогоплательщика, так как это состояние напрямую влияет на развитие предпринимательской деятельности. Систематизация налоговых льгот и оценка их эффективности позволяют государству обоснованно разрабатывать нормативно-правовые акты.

Ключевые слова: налоговые льготы, эффективность, оценка, критерий, показатель.

APPROACHES TO ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF TAX INCENTIVES

Abdurakhmonov Bakhriddin

Termez State University

Abstract. The article highlights certain aspects of developing criteria and indicators for assessing the effectiveness of tax incentives. In a market economy, the activities of any economic entity should be aimed at achieving a positive financial result, which is significantly influenced by tax incentives and preferences. The taxation system must be acceptable to the taxpayer, as this factor directly affects the development of entrepreneurial activity. The systematization of tax incentives and the assessment of their effectiveness allow the state to develop regulatory legal acts on a reasonable basis.

Keywords: tax incentives, effectiveness, assessment, criterion, indicator.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ijobiy moliyaviy natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunga soliq imtiyozlari va preferensiyalar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Soliqqa tortish tizimi tadbirkorlik faoliyati rivojiga bevosita ta'sir etishi sababli, u soliq to'lovchi uchun qabul qilinadigan darajada bo'lishi zarur. Hozirgi kunda soliq islohotlari doirasida imtiyozlar soni ortgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiyot rivojiga ta'siri har doim ham ochiq-oydin namoyon bo'lmayapti. Shu sababli, soliq imtiyozlarini tizimlashtirish va ularning samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqish davlat uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlarni asosli tayyorlash imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash masalasi ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Syroyejin (1980) samaradorlik va sifat ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish bo'yicha fundamental yondashuvlarni ilgari surgan.

Goncharenko va Polejarova (2015) tashkilotlarning soliq aspektlari va innovatsion iqtisodiyotni soliq orqali rag'batlantirish masalalarini o'rganishgan. Shuningdek, Panskov (2013) iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda soliq mexanizmlarining rolini tahlil qilgan. Mahalliy amaliyotda esa soliq imtiyozlari samaradorligini baholash bo'yicha yagona metodikaning shakllanmaganligi va mavjud usullarning davlat hamda soliq to'lovchilar ehtiyojlarini to'liq qoniqtirmasligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda soliq imtiyozlari samaradorligini baholash uchun ikki bosqichli metodika taklif etiladi:

Ekspert bosqichi – professional fikr va iqtisodiy-matematik formulalar yordamida imtiyozning qulayligi, aniqligi va raqobatga ta'siri kabi mezonlar baholanadi.

Hisoblash bosqichi – integral samaradorlik koeffitsiyenti va muayyan ko'rsatkichlar majmui – templar (o'sish sur'atlari) va solishtirma usullar asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, ijtimoiy samaradorlikni baholashda dinamik normativ usulidan foydalanilib, ko'rsatkichlar ustuvorlik darajasiga ko'ra tartiblanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda, chunki soliq islohotlari yillari davomida imtiyozlar soni sezilarli darajada ko'paygan bo'lsa-da, ularning iqtisodiyot rivojiga ta'siri ochiq-oydin namoyon bo'lmayapti.

Soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash bo'yicha mavjud metodikalar davlat organlarini ham, soliq to'lovchilarni ham qoniqtirmaydi. Buning sababi, bir tomondan, boshqaruvning barcha darajalarida yagona metodikani qo'llash amaliyoti shakllanmaganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa soliq to'lovchilar qaysi imtiyozlar ular uchun eng maqbul ekanini tushunib yetmaydi.

Xorijiy tajribaga tayangan holda, soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash metodikasida imtiyozlar samaradorligini ikki bosqichda baholash taklif etiladi: avval ekspert usulida, keyin esa maxsus koeffitsiyentni hisoblash orqali.

Birinchi – ekspert bosqichda samaradorlikni baholash professional fikr va iqtisodiy-matematik formulalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvning mohiyati – samaradorlik mezonlarini belgilashdan iborat bo'lib, bu mezonlar muayyan talablar to'plamini anglatadi. Masalan, soliq to'lovchilar uchun imtiyozning qulayligi, uni olish qoidalarining aniq va tushunarliqligi, raqobat darajasiga ta'siri va boshqalar.

Keyingi bosqichda muayyan soliq imtiyozini ma'lum bir guruhga ajratish ko'zda tutiladi, bunda imtiyozning qaysi soliqqa tortish elementiga yo'naltirilgani, uni berish shartlari, amal qilish muddati va boshqa tegishli mezonlar inobatga olinadi.

Har bir guruh doirasida samaradorlikni yanada aniq va ishonchli baholash maqsadida qo'shimcha kichik guruhlar shakllantiriladi, xususan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga, tovar bozorini kengaytirishga yo'naltirilgan yo'nalishlar ajratib ko'rsatiladi.

Shu tariqa, har bir guruhda samaradorlikni baholash uchun uchdan yettigacha ko'rsatkich qo'llanadi. Bu ko'rsatkichlarga ekspert tomonidan ularning ahamiyatiga, ya'ni guruh ichida umumiy samaradorlikka ta'sir darajasiga qarab muayyan salmoq koeffitsiyenti beriladi.

Ekspert baholash natijalari asosida quyidagi yo'nalishlarda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi:

- imtiyozni bekor qilish;

- imtiyozni o'zgarishsiz saqlab qolish yoki unga muayyan kichik o'zgartishlar kiritish;

- samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun imtiyoz ta'sirini qo'shimcha chuqur tahlil qilish.

Ikkinchi – hisoblash bosqichida baholash integral samaradorlik koeffitsiyenti hamda berilgan imtiyoz bilan bevosita bog'liq ko'rsatkichlar majmui asosida amalga oshiriladi. Imtiyozni joriy etish mezonlari esa uning yakuniy maqsadidan kelib chiqib belgilanadi, ya'ni texnik, ijtimoiy yoki rag'batlantiruvchi yo'nalishga ega bo'lishi mumkin:

- Imtiyozning texnik yo'nalishda joriy etilishi byudjet to'lovlarini optimallashtirish hamda o'zaro qarama-qarshi moliyaviy oqimlarni qisqartirishga qaratiladi;

- ijtimoiy maqsad aholining muayyan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bilan izohlanadi;

- rag'batlantiruvchi maqsad esa alohida faoliyat turlarini qo'llab-quvvatlash, hududlarni rivojlantirish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Samaradorlik koeffitsiyentini hisoblash templar usuli yoki solishtirma (taqqoslovchi) usul orqali amalga oshirish taklif qilinadi.

Birinchi holatda tanlangan ko'rsatkichning imtiyoz qo'llanilayotgan n-yildagi o'sish sur'ati imtiyoz joriy etilmasdan oldingi, ya'ni undan avvalgi yil ko'rsatkichi bilan taqqoslanadi.

Ikkinchi holatda esa tanlangan ko'rsatkichning muayyan yo'nalish (hudud, faoliyat turi) bo'yicha n-yildagi o'sish sur'ati hudud yoki tarmoq bo'yicha o'rtacha kabi bazaviy ko'rsatkichi bilan solishtiriladi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan mazkur metodika axborot jihatidan yetarlicha mazmunli hisoblanadi, chunki u ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasiga tayanadi hamda davlat va imtiyoz oluvchilar manfaatlarini hisobga oladi. Shu bilan birga, ushbu metodika o'ziga xos afzalliklaridan kelib chiqadigan ayrim cheklov va kamchiliklardan ham holi emas.

Masalan, ekspert baholashdan foydalanish soliq imtiyozlari samaradorligini aniqlashda ma'lum darajada subyektivlikni keltirib chiqaradi, koeffitsiyentlarni hisoblash esa makroiqtisodiy xususiyatga ega. Bu holat, bir tomondan, ishning yakuniy bosqichida baholash natijalarining ishonchsiz bo'lib chiqish ehtimolini oshirsa, ikkinchi tomondan, metodikani mahalliy va hududiy darajada qo'llashni qiyinlashtiradi.

Shu sababli ko'pgina hududlarda soliq imtiyozlari samaradorligini baholash bo'yicha o'z mezonlari va metodikalari ishlab chiqilishi, va unda yuridik shaxslar foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, shuningdek soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga e'tibor qaratilish maqsadga muvofiq (Бортник и др., 2013; Губанов, 2016; Коновалова, 2016).

Hududlarda soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning ayrim mezonlarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Bunday mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, bu ishlab chiqarish hajmlarining ko'payishi, soliq to'lovlarining ortishi hamda investitsiya loyihasi amalga oshirilgandan keyin tannarxning kamayishi bilan bog'liq. Natijada, imtiyoz qo'llanilishi hisobiga byudjet daromadlari joriy davrda imtiyoz berishdan kelib chiqadigan yo'qotishlardan ortiq bo'lishi kerak;

- byudjet xarajatlarini qisqartirish, ya'ni byudjetdan qisman yoki to'liq moliyalashtiriladigan soliq to'lovchilar uchun soliq yukini pasaytirish orqali byudjet sarf-xarajatlarini kamaytirish. Ushbu soliq imtiyozi byudjet xarajatlari imtiyoz berishdan kelib

chiqadigan yo'qotishlardan ortiq yoki kamida teng miqdorda qisqarishi mumkin bo'lgan holatda ko'rib chiqiladi;

aholi turmush darajasini oshirish, bu aholining xarid qobiliyati oshishi, majburiy to'lovlarni to'lashga ketadigan xarajatlar ulushi kamayishi orqali baholanadi. Ushbu imtiyoz, agar yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozidan foydalanish natijasida aholi olgan jami samara byudjetning imtiyoz berishdan ko'rgan yo'qotishlaridan yuqori bo'lsa, ko'rib chiqiladi.

Soliq imtiyozi, odatda, soliq stavkasini pasaytirish yoki soliq bazasini qisqartirish orqali amalga oshiriladi. Bunda imtiyoz taqdim etilishi natijasida byudjetda yuzaga keladigan yo'qotishlar miqdori asosiy baholash ko'rsatkichi sifatida olinadi.

Yuqorida bayon etilgan metodikani tahlil qilish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, unda shakllantirilgan mezonlar asosida soliq imtiyozlarini taqdim etishdan kelib chiqadigan byudjet yo'qotishlarini baholashga qaratilgan yondashuv taklif etilgan, biroq imtiyozlarning samaradorligini to'liq baholash nazarda tutilmagan. Chunki metodikada erishilgan natijalar bilan qilingan xarajatlarning bevosita taqqoslanishi mavjud emas. Shuningdek, mazkur algoritmi yangi joriy etilayotgan soliq imtiyozlariga emas, balki amalda mavjud bo'lgan imtiyozlarga nisbatan qo'llash uchun mo'ljallangan.

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning yana boshqa mezonlari quyidagilardan iborat:

xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustuvor xo'jalik faoliyati turlarini kengaytirishga bo'lgan iqtisodiy qiziqishini ta'minlash;

aholi uchun zarur bo'lgan mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) ishlab chiqarishga qaratilgan ishlab chiqarish va texnologiyalarni yaratish, kengaytirish hamda yangilashga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslardan foydalanishni rag'batlantirish;

investitsion va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi fuqarolarni o'z faoliyat sohasiga jalb etadigan yuridik shaxslar faoliyati uchun qulay iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish hamda bunday toifadagi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash;

aholi uchun ustuvor hisoblangan ijtimoiy vazifalarni hal etishda yuridik shaxslarga iqtisodiy ko'mak ko'rsatish.

Soliq imtiyozlari samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti;

byudjet samaradorligi koeffitsiyenti.

Birinchi parametrni hisoblash jarayonida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi: mahsulot (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olingan tushum, tannarx darajasi, yalpi foyda hajmi, yalpi foydaning rentabelligi, shtat xodimlari bo'yicha ish haqi jamg'armasi, shtat tarkibidagi xodimlar va o'rindoshlar soni, shuningdek, shtat xodimlari hamda tashqi o'rindoshlarning o'rtacha oylik ish haqi.

Shundan so'ng har bir ko'rsatkich bo'yicha baholash ballari belgilanadi: ijobiy dinamika qayd etilgan holatda – 1 ball, salbiy dinamika kuzatilganda – 0 ball. Olingan ballar jamlanib, ularning umumiy yig'indisi aniqlanadi. Agar hisoblangan koeffitsiyent qiymati 0,8 dan yuqori bo'lsa, soliq imtiyozlari ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ijobiy samaradorlikka ega, deb baholanadi.

Soliq imtiyozlarining byudjet samaradorligi koeffitsiyenti esa mahalliy byudjetga tushumlar o'sish hajmining soliq imtiyozlari taqdim etilganligi sababli yuzaga kelgan yo'qotishlar summasiga nisbati sifatida hisoblanadi. Bunda agar koeffitsiyent qiymati 1 dan yuqori bo'lsa soliq imtiyozlarining byudjet samaradorligi ijobiy hisoblanadi.

Mazkur metodikaning asosiy afzalligi shundan iboratki, byudjet, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik nafaqat amalda qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari, balki joriy etilishi rejalashtirilayotgan imtiyozlar bo'yicha ham baholanadi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari samaradorligini aniqlash mezonlariga mos keluvchi asosiy ko'rsatkichlar ham kompleks tarzda inobatga olinadi.

Biroq mazkur metodikaning asosiy kamchiliklari algoritmdagi quyidagi xatolar bilan bog'liq:

birinchidan, muayyan toifadagi soliq to'lovchilarga belgilangan maqsadlar uchun soliq imtiyozlari berish natijasida soliq tushumlari o'sish hajmi kelgusi davr uchun hisoblanishi mumkin, imtiyoz berishdan byudjet ko'radigan yo'qotishlar esa joriy davrda aniqlanadi;

ikkinchidan, ayrim soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning boshqa soliqlar bazasini shakllantirishga ta'siri inobatga olinmaydi. Masalan, yuridik shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz foyda solig'i bo'yicha soliq bazasining oshishiga olib keladi, iqtisodiy samaradorlikni hisoblash algoritmda esa bu ko'rsatkichlar bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri zid bo'lib chiqadi.

Shu yerda savol tug'iladi: byudjet uchun qaysi tushum muhimroq – mol-mulk solig'idan tushadigan tushummi yoki foyda solig'idan tushadigan tushummi?

Keltirilgan metodikalar tahlilidan kelib chiqib, shuni taxmin qilish mumkinki, soliq imtiyozlari taqdim etilgan yoki qo'llanilgan paytda iqtisodiy samaradorlik bahosi natijasi byudjet samaradorligi natijasiga to'g'ridan-to'g'ri zid bo'lib chiqishi mumkin.

Ko'pgina hududlarda soliq imtiyozlari samaradorligini baholash metodikalarining bir xil (unifikatsiyalashgan) ko'rsatkichlar asosida takrorlanishi, amaliyotda berilgan imtiyozlar va byudjet tushumlari dinamikasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni xolis aniqlash imkonini bermaydi.

Ya'ni soliq tushumlari qaysi omil ta'sirida o'zgarganini (imtiyozlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar, bozor konyunkturasining yaxshilanishi) aniqlash qiyin (Крыжкова, 2010).

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash mezonlari bo'yicha alohida yondashuvlarni umumlashtirib aytganda, asosan yondashuvlar byudjet, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash bilan bog'liq ekanini ta'kidlash lozim.

Odatda, byudjet samaradorligi soliq imtiyozi berilgani natijasida byudjetda yuzaga kelgan yo'qotilgan daromadlar summasi va imtiyoz berish hisobiga olingan qo'shimcha daromadlar o'rtasini taqqoslash orqali baholanadi. Biroq amalda soliq imtiyozi tufayli paydo bo'lgan qo'shimcha daromadlarni aniq ajratib ko'rsatish muammoli, chunki imtiyoz omil sifatida xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va boshqa yo'nalishlarga bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun qo'shimcha daromadlar faqat soliq imtiyozi berilganining natijasi sifatida emas, balki boshqa omillar bilan ham izohlanishi mumkin.

Berilayotgan soliq imtiyozining ijtimoiy samaradorligini baholash ijtimoiy sohaning rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar dinamikasiga bog'liq. Hududlar tajribasiga ko'ra, bunday ko'rsatkichlar turli kombinatsiyalarda juda ko'p bo'lishi mumkin.

Shunday ko'rsatkichlar ichida eng keng tarqalganlari: xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining oshishi, o'rtacha oylik ish haqining o'sishi, ish haqi bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik miqdori va boshqalar hisoblanadi (Пансков, 2013).

Biroq hududlar tomonidan qo'llanadigan ijtimoiy ko'rsatkichlarga nisbatan ham byudjet samaradorligi parametrlaridagi kabi muammo mavjud – ko'rsatkichlar dinamikasi faqat soliq imtiyozlariga emas, balki boshqa iqtisodiy omillarga ham bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy samaradorlik esa soliq imtiyozlari taqdim etilgan soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari dinamikasini baholash bilan bog'liq bo'lib, hisobot yoki rejalashtirilayotgan davr maqsadli parametrlarini bazis davr ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Soliq imtiyozlari tizimi samarali iqtisodiy tartibga soluvchi vosita sifatida muayyan talablarga javob berishi lozim. Agar ushbu talablar bajarilmasa, uning amal qilishi maqsadga muvofiq bo'lmay qoladi (Харрингтон, 2008).

Byudjet tizimining uzoq muddatli muvozanatliliigi va barqarorligini ta'minlash uchun soliq imtiyozlari "maqsad – natija" tamoyili asosida baholanishi lozim. Bu, birinchidan, davlat sa'y-harakatlari qaratilgan aniq belgilab qo'yilgan parametrlar mavjud bo'lishini, ikkinchidan esa o'rnatilgan imtiyozlar samaradorligini baholashni anglatadi. Ushbu baholash belgilangan maqsadlarga erishilgan-erishilmaganini aks ettiradi.

Maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash juda muhim, chunki joriy etilayotgan har bir soliq imtiyozi muayyan maqsadga ega bo'ladi va u tegishli ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi. Ammo muammo shundaki, mahalliy amaliyotda yuridik shaxslar intilishi lozim bo'lgan miqdoriy ifodadagi maqsadlar belgilanmaydi. Bunday maqsadlarning mavjud emasligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

soliq imtiyozlarining maqsadli qo'llanilishi nuqtayi nazaridan ularning tuzilmasi va dinamikasini tahlil qilish uchun rasmiy statistika hamda soliq hisoboti ma'lumotlari yetarli emas. Mavjud statistika va soliq hisobotlari esa asosan faqat byudjet rejalashtirish maqsadlariga xizmat qiladi;

soliq imtiyozining samaradorligini nazorat qilish majburiyati yuklanadigan davlat organi qonunchilikda aniq belgilanmagan. Soliq organlari muayyan soliq to'lovchi tomonidan soliq imtiyozlarining qonuniy qo'llanilishi va summalarining to'g'ri hisoblanishini nazorat qiladi, ammo erishilgan natijani tekshirish ularning vazifasi hisoblanmaydi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari samaradorligini monitoring qilish aniq mas'ul ijrochilar belgilanmasdan turib amalga oshirilishi mumkin emas.

Shundan kelib chiqib, amalda taklif etilayotgan deyarli barcha soliq imtiyozlari va preferensiyalar bo'yicha ularning kutilgan iqtisodiy yoki ijtimoiy samaradorligi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Shuningdek, imtiyozlar bekor qilingan hollarda ham ularning samara bermagani sabablari tahlil qilinmaydi.

Soliq imtiyozlari samarali bo'lishi uchun ular quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

mamlakat va hududdagi aniq ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishga xizmat qilishi;

iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar hajmini oshirishga ko'maklashishi;

yuridik shaxslar va hududdagi iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga yordam berishi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishga intilish, o'z navbatida, quyidagi talablarni taqozo etadi:

soliq imtiyozlarini ularning turlari va taqdim etish maqsadlariga ko'ra guruhlar bo'yicha unifikatsiya qilish;

muayyan faoliyat turlari va hududlarni rivojlantirishni rag'batlantirish;

ayrim toifadagi soliq to'lovchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va h.k.

Real sektorga investitsiyalar hajmini oshirishga intilish, asosan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash ishlarini amalga oshirishga borib taqaladi.

Bunda soliq siyosatida imtiyozlarni qo'llash samaradorligi mazkur qo'llab-quvvatlash qaysi shartlar asosida berilishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, soliq to'lovchining qo'shimcha olingan moliyaviy resurslarni investitsiyaviy yoki innovatsion maqsadlarga yo'naltirishga tayyorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik shaxslarda iqtisodiy holatni yaxshilashga bo'lgan intilish shundan dalolat beradiki, soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida pul oqimlari hamda moliyaviy natijalar o'sadi. Mazkur holat quyidagi natijalarni ta'minlashi lozim:

yuridik shaxs faoliyatini nafaqat avvalgi hajmlarda, balki kengaytirilgan asosda ham o'zini o'zi moliyalashtirish qobiliyatining shakllanishi;

barqaror to'lov qobiliyatining ta'minlanishi, jumladan:

kreditorlar oldida – hisob-fakturalar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish;

byudjet oldida – soliqlarni belgilangan muddatlarda to'lash;

xodimlar oldida – ish haqini o'z vaqtida to'lash;

banklar oldida – kredit majburiyatlarini o'z vaqtida qaytarish;

yuridik shaxslarning investorlar hamda boshqa biznes hamkorlar uchun jozibadorligini oshirish.

Shu tariqa, davlat soliq to'lovchilar tomonidan olingan imtiyozlarning belgilangan maqsadlarga yo'naltirilgan holda foydalanilishi bo'yicha yetarli kafolatlar ega bo'lishi lozim. Bu esa faqat qonunchilikda soliq to'lovchi tomonidan imtiyozlar natijasida qo'shimcha olingan

moliyaviy resurslarni mazkur soliq imtiyozi xizmat qiladigan aniq maqsadlarga yo'naltirishni ta'minlovchi kafolatlar tizimi mustahkam belgilangan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Jumladan, ozod etilgan foydaning muayyan qismini kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishga, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga va boshqa ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish kabi mexanizmlarni joriy etish mumkin.

Bundan tashqari, har bir soliq imtiyozlari guruhi bo'yicha, shu jumladan soliq to'lovchilar tomonidan amalda foydalanilgan imtiyozlar summasini ham qamrab olgan holda, tegishli statistik hisobot tizimini joriy etish zarur.

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholashda quyidagi ketma-ket harakatlar algoritmiga amal qilish lozim:

soliq imtiyozlarini ularning turlari va taqdim etish maqsadlariga ko'ra guruhlariga ajratish;

soliq imtiyozining turini aniqlash: ozod qilish, soliq stavkasini pasaytirish, soliq krediti, soliq ta'tillari (kanikullari) va h.k.;

imtiyozlardan foydalanadigan soliq to'lovchilar toifasini aniqlash, ya'ni jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslar kesimida belgilash;

maqsadli samaradorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblash;

olingan natijani asoslash (olingan natijani me'yoriy ko'rsatkich bilan taqqoslash).

Samaradorlikni baholashda samaradorlik tushunchasiga aniq amal qilish zarur. Ya'ni samaradorlik – jarayon, operatsiya, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishning natijaviyligi bo'lib, u samaraning ushbu natijaga olib kelgan xarajatlar yoki sarflarga nisbati orqali aniqlanadi. Maqsadli samaradorlikni hisoblashda faqat faoliyat natijasini emas, balki u qanday shart-sharoitlarda erishilganini ham inobatga olish lozim.

Soliq imtiyozlarining maqsadli samaradorligini baholashni ularning oluvchilari nuqtayi nazaridan, ya'ni yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar kesimida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Soliq imtiyozining maqsadini belgilash strategik rejalashtirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga mos bo'lishi kerak.

Guruhlar kesimida soliq imtiyozlari samaradorligini baholash uchun asosiy maqsadli yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz:

muayyan faoliyat turlarini rivojlantirish va rag'batlantirishga, shuningdek soliq to'lovchilarning moliyaviy resurslaridan foydalanishga qaratilgan imtiyozlar;

aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan imtiyozlar.

Imtiyoz berish maqsadi aniqlangach, uning samaradorligini baholash mezonini va ko'rsatkichlarini belgilash zarur. Ushbu mezon va ko'rsatkichlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

mazmunlilik;

o'lchash mumkinligi;

hisoblashda soddalik;

iqtisodiy jarayonni to'liq tavsiflash.

1-guruh imtiyozlari. Samaradorlik mezonini: soliq xarajatlarining optimal miqdori sharoitida eng yuqori moliyaviy natijaga erishish, ya'ni xarajatning har bir birligiga to'g'ri keladigan natijani maksimallashtirish.

Samaradorlikni baholashning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi – soliqqa tortish samaradorligi koeffitsiyenti S_k bo'lib, u yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan sof foyda F_s ning umumiy soliq xarajatlari X ga nisbati sifatida hisoblanadi:

$$S_k = \frac{F_s}{X}, \quad (1)$$

Soliqqa tortish samaradorligi koeffitsiyentini hisoblashda soliq xarajatlariga ham bilvosita soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i – QQS, aksizlar) kiritilishi lozim. Bunda ular qo'shimcha to'lanadigan summalar miqdorida, ya'ni qaytarib olinadigan summalarni hisobga olgan holda inobatga olinadi. Shuningdek, xarajatlarga va moliyaviy natijalarga o'tkaziladigan soliqlar ham soliq soliq xarajatlari tarkibiga qo'shiladi.

Soliqqa tortish samaradorligini tahlil qilish 3 bosqichdan iborat:

1. Hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soliq to'lovlarining umumiy summasini aniqlash;
2. Soliqqa tortish samaradorligi ko'rsatkichi dinamikasini tahlil qilish;
3. Parametrlardagi o'zgarishlarga sabab bo'lgan omillarning umumiy tavsifini shakllantirish va shu asosda sof foydani oshirish zaxiralarini aniqlash.

Soliqqa tortish samaradorligi koeffitsiyentini aniqlash ayrim faoliyat turlari va hududlar kesimida soliq imtiyozlari tizimiga diagnostika o'tkazish imkonini beradi.

Aniqroq tavsif berish uchun soliqqa tortish samaradorligini baholashda xususiy ko'rsatkichlarni ham hisobga olish kerak.

Soliq rag'batlantirish koeffitsiyenti S_{rk} sof foydaning davlat va soliq to'lovchi o'rtasida taqsimlanadigan yangi yaratilgan qiymat qismidan ulushiga nisbatan hisoblanadi:

$$S_{rk} = \frac{(1 - \alpha_f)[(1 - \alpha_{qqs})Q - M - (\alpha_{mm}F) - (1 + \alpha)IH]}{Q - M - IH} \quad (2)$$

bu yerda:

α_f – foyda solig'i stavkasi;

α_{qqs} – QQS stavkasi;

Q – realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar, xizmatlar qiymati;

M – moddiy xarajatlar;

α_{mm} – mol-mulk solig'i stavkasi;

F – asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati;

α – sug'urta badallari tarifi;

IH – ish haqi.

Boshqacha aytganda, ushbu nisbatning maxraji – soliqlar, sug'urta badallari, boshqa to'lovlar va foyda yig'indisidan iborat.

Shuningdek, soliq rag'batlantirish koeffitsiyenti soliq to'lovchilarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini aks ettirishi mumkin, deb taxmin qilish mumkin.

Shubhasiz, soliq to'lovchilar faqat o'z foydasini oshirishdangina manfaatdor emas, balki yaratilayotgan qiymatning davlat va ular o'rtasida adolatli taqsimlanishiga ham qiziqish bildirishadi. Shuningdek, tadbirkorlik manfaati odatda 45–50% oralig'ida bo'lishi aniq, ya'ni biznesni rivojlantirish uchun soliq rag'batlari eng jozibador hisoblanadi. Aksincha, koeffitsiyent qancha past bo'lsa, soliq yuki shuncha yuqori bo'ladi.

Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari misolida soliq rag'batlantirish koeffitsiyentini ko'rib chiqamiz.

O'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra shuni qayd etish mumkinki, faoliyat turlarining ko'pchiligida tadbirkorlikni takomillashtirish va o'z moliyaviy resurslarini shakllantirish uchun juda qulay soliq sharoitlari vujudga kelgan. Shu sababli soliq rag'batlantirish koeffitsiyenti 0,5 dan yuqori bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soliq imtiyozlarini qisqartirish yo'nalishida soliq sharoitlarini qayta ko'rib chiqish mumkin.

Soliq yuki koeffitsiyenti S_{yk} yuridik shaxs soliq agenti sifatida to'laydigan soliqlar hisobga olinmasdan, soliq to'lovlarining umumiy summasini realizatsiya qilingan mahsulot, ishlar va xizmatlar hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi:

$$S_{yk} = \frac{N}{T}, \quad (3)$$

bu yerda:

N – QQS va aksizlarni hisobga olgan holda soliq to'lovlarining umumiy summasi;

T – QQS va aksizlarni hisobga olgan holda mahsulot, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Soliq tejami koeffitsiyenti S_{tk} soliq imtiyozlaridan foydalanish natijasida olingan soliq tejami miqdorining, imtiyozlarsiz hisoblanadigan umumiy soliq majburiyatlariga nisbati sifatida hisoblanadi:

$$S_{tk} = \frac{S_t}{S_m}, \quad (4)$$

bu yerda:

S_t – soliq tejami summasi;

S_m – imtiyozlar hisobga olinmasdan, soliq majburiyatlarining umumiy summasi.

Soliq tejami koeffitsiyentini hisoblash muayyan imtiyozning tegishli soliq miqdoriga ta'sir darajasini aniqlash imkonini beradi.

Imtiyozli soliqqa tortish asosida kapital qo'yilmalar samaradorligi koeffitsiyenti K_{sk} soliq imtiyozlaridan foydalanish natijasida olingan sof foydani kapital qo'yilmalar shaklidagi umumiy investitsiyalar summasiga nisbati sifatida hisoblanadi:

$$K_{sk} = \frac{SF}{KQ}, \quad (5)$$

bu yerda:

SF – investitsiyaviy soliq imtiyozlaridan foydalanish natijasida olingan sof foyda;

KQ – kapital qo'yilmalar summasi.

2-guruh imtiyozlari. Samaradorlik mezoni: ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari turmush darajasini oshirish, fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish. Ijtimoiy samaradorlik esa ijtimoiy natijani aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni ushbu natijaga erishish uchun zarur bo'lgan xarajatlarga nisbati orqali aniqlanadi. Ijtimoiy natijalar aholini ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, o'rtacha ish haqini oshirish va h.k. orqali namoyon bo'ladi.

Soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligini baholash quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash bilan bog'liq:

xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni;

o'rtacha oylik ish haqi;

yashash minimimi miqdori;

aholining real daromadlari.

Ijtimoiy samaradorlikni bitta ko'rsatkich bilan o'lchab bo'lmasligi sababli, uni omillar orqali baholash maqsadga muvofiq. Buning uchun dinamik normativ usulidan foydalanish mumkin (Сыроежин, 1980).

Ushbu usulning mohiyati ko'rsatkichlarni ustuvorlik bo'yicha tartiblashdan iborat bo'lib, bu modelda ko'rsatkich qiymatlaridagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarning ta'sirini cheklash imkonini beradi. Biroq ushbu usulning kamchiligi – ko'rsatkichlarni tanlash va ularni tartiblashda subyektiv yondashuv mavjud bo'lishi mumkin.

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash uchun eng muhim ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni tanlaymiz: o'rtacha oylik ish haqi, xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni, aholining real daromadlari, yashash minimimi, tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi aylanmasi. Faraz qilaylik, soliq imtiyozi aholiga xizmat ko'rsatuvchi ishlar va xizmatlarni bajarayotgan yuridik shaxslarga beriladi.

Hisob-kitobning muhim bosqichi – dinamik normativ matritsasidagi ko'rsatkichlarni asoslashdan iborat.

Ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum o'sish dinamikasi, bir tomondan, soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini ishlar (xizmatlar) miqdorining ortishi va narxning pasayishi orqali aks ettirsa, ikkinchi tomondan esa aholining ijtimoiy farovonligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich o'rtacha oylik ish haqiga va xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga ta'sir ko'rsatadi, yashash minimimini shakllantiradi hamda aholining real daromadlariga bog'liq bo'ladi.

O'rtacha oylik ish haqining o'sish sur'atlari aholining yuqori farovonligini ta'minlash uchun xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lishi kerak.

Soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini baholash I_s quyidagi formula ko'rinishida ifodalanishi mumkin:

$$I_s = 1 - \frac{\sum_{i=1}^k m_i(m_i - 1)}{n(n - 1)} \quad (6)$$

bu yerda:

I_s – soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligi indeksi;

m_i – soliq imtiyozidan foydalanuvchi i-toifadagi soliq to'lovchilar soni;

n – imtiyozdan foydalanuvchi soliq to'lovchilarning umumiy soni;

k – soliq to'lovchilar toifalari soni.

Haqiqiy tartibdagi qayta joylashtirishlar (inversiyalar) soni dinamik normativ bilan taqqoslaganda, mazkur ko'rsatkichga nisbatan haqiqiy rangda undan past turgan ko'rsatkichlar soni sifatida aniqlanadi.

Soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini baholash 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda o'zgaradi. Ya'ni ko'rsatkich normativ tartibga qancha yaqin bo'lsa, soliq imtiyozlarining samaradorligi shuncha yuqori hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, foydalanuvchi nuqtayi nazaridan taklif etilgan baholash mezonini va soliq imtiyozlarining samaradorlik ko'rsatkichlari davlatning tegishli siyosati shakllanishida konstruktiv yo'nalish beradi hamda yuridik shaxslar uchun soliq to'lovlarini asosli ravishda rejalashtirishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Soliq imtiyozlari "maqsad – natija" tamoyili asosida baholanishi, davlat esa imtiyozli mablag'larning aniq maqsadlarga (modernizatsiya, innovatsiya) yo'naltirilishi bo'yicha kafolatlar tizimiga ega bo'lishi lozim:

Byudjet samaradorligi koeffitsiyenti 1 dan yuqori bo'lgandagina imtiyoz ijobiy deb baholanishi kerak:

Har bir imtiyoz guruhi bo'yicha tegishli statistik hisobot tizimini joriy etish va monitoring uchun mas'ul davlat organini aniq belgilash zarur.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Abdurahmonov, B. (2026). Hududlarda rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholash. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 4(1), 9-20.

Abdurakhmonov B. (2026). Criteria for classifying tax incentives in the tax system of Uzbekistan and features of their practical application. *Portugal-Scientific review of the problems and prospects of modern science and education*, 1(11), 41-49.

Бортник И.М., Зинов В.Г., Коцюбинский В.А., Сорокина А.В. (2013) Индикаторы инновационного развития регионов России для целей мониторинга и управления // *Инновации*. № 11. С. 2–13.

Гончаренко Л.И., Полежарова Л.В. (2015) Налоговые аспекты процентных расходов организаций в условиях экономической нестабильности // Экономика. Налоги. Право. № 1. С. 127–134.

Губанов С. (2016) Об экономической модели и долгосрочной стратегии новой индустриализации России // Экономист. № 2. С. 3.

Коновалова Г.И. (2016) Методология внутрифирменного управления на основе системной оптимизации // Менеджмент в России и за рубежом. № 2. С. 109–118.

Кружкова И.И. (2010) Учет и восстановление амортизационной премии // Налоговая политика и практика. № 3. С. 40–45.

Пансков В.Г. (2013) Стимулирование модернизации российской экономики посредством налоговых механизмов // Экономика. Налоги. Право. № 1. С. 64–72.

Сыроежин И.М. (1980) Совершенствование системы показателей эффективности и качества. –М.: Экономика, -192 с.